XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Ish haqi. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Shahar va tumanlar	*O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m*		*O‘sish sur’ati, %*
	2022- yil	*2023- yil*	
Xorazm viloyati - jami:	**3184,6**	**3759,3**	**118,0**
shu jumladan:			
Urganch sh.	4222,5	5069,2	120,1
Xiva sh.	2613,3	2975,2	113,8
Bog‘ot	2550,7	3033,0	118,9
Gurlan	2454,1	2772,9	113,0
Qo‘shko‘pir	2462,5	2824,2	114,7
Urganch	2750,5	3287,0	119,5
Hazorasp	2329,7	2790,9	119,8
Tuproqqal’a	4484,8	5435,7	121,2
Xonqa	2779,1	3026,4	108,9
Xiva	2567,7	2939,5	114,5
Shovot	2514,9	2905,6	115,5
Yangiariq	3317,4	3606,5	108,7
Yangibozor	2269,6	2532,7	111,6

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Tuproqqal’a tumanida 5 435,7 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 144,6 %), Urganch shahrida 5 069,2 ming so‘mni (134,8 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 532,7 ming so‘mni (67,4 %), Gurlan tumanida 2 772,9 ming so‘mni (73,8 %), Hazorasp tumanida 2 790,9 ming so‘mni (74,2 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-dekabrida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

Sohalar nomi	***O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- dekabr)***		***O‘sish sur’ati, %***
	2022- yil	*2023- yil*	
Xorazm viloyati - jami:	**3184,6**	**3759,3**	**118,0**
shu jumladan:			
Sanoat	3715,8	4281,6	115,2
Qurilish	3061,7	3888,1	127,0
Savdo	2329,8	2836,6	121,8
Tashish va saqlash	6480,5	7448,9	114,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1814,2	2143,0	118,1
Axborot va aloqa	4041,4	7735,6	191,4
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	9092,0	10 895,1	119,8
Ta’lim	2528,6	2965,6	117,3
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2771,6	3268,1	117,9
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2376,8	2688,7	113,1
Boshqa faoliyat turlari	3627,6	4254,9	117,3

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3759,3 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 18,0 % ga o‘sishi kuzatildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur’ati axborot va aloqada – 91,4 %, qurilishda – 27,0 %, savdoda – 21,8 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyati – 19,8 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 18,1 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar – 17,9 %, ta’lim – 17,3 %, sanoat – 15,2 %, tashish va saqlash faoliyatida – 14,9 % darajada kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati

(2023- yil yanvar-dekabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar- dekabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2023- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4281,6 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, xuddi shu davr 2019- yilda 2718,6 ming so‘mni, 2020- yilda 2667,6 ming so‘mni, 2021- yilda 3112,3 ming so‘mni, 2022- yilda 3715,8 ming so‘mni tashkil qilgan va otgan yillarga nisbatan 157,5 % darajaga ko‘paygani kuzatildi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, *ming so‘m*

4228,8

Ishlab chiqarish sanoati

2210,4

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

5931,4

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida o‘rtacha oylik ish haqi ishlab chiqarish sanoatida – 4228,8 ming so‘mni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 2210,4 ming so‘mni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda - 5931,4 ming so‘mni tashkil qilgani ko‘rsatilgan.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni

(2023- yil yanvar-dekabr, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)



Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar-dekabr oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2023- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3888,1 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, xuddi shu davr 2019- yilda 1937,2 ming so‘mni, 2020- yilda 2485,3 ming so‘mni, 2021- yilda 2975,7 ming so‘mni, 2022- yilda 3061,7 ming so‘mni tashkil qilgan va otgan yillarga nisbatan 2,0 martaga ko‘paygani kuzatildi.

Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni, nominal hisoblangan ish haqi, o‘rtacha oylik ish haqi

(2023- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	***Ish haqi fondi, mln so‘m***	***Ortacha oylik ish haqi, ming so‘m***
	2023- y.	***2023- y.***	***2023- y.***
Xorazm viloyati – jami:	**140961**	**6359004,4**	**3 759,3**
shu jumladan:			
Sanoat	20549	1055792,9	4 281,6
Qurilish	2199	102598,4	3 888,1
Savdo	1161	39520,1	2 836,6
Tashish va saqlash	3905	349056,2	7 448,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	61	1568,7	2 143,0
Axborot va aloqa	874	81130,5	7 735,6
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2649	346332,4	10 895,1
Ta’lim	63768	2269334,0	2 965,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25632	1005221,4	3 268,1
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	1978	63819,8	2 688,7
Boshqa faoliyat turlari	18185	928497,3	4 254,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, **sanoatda** - 20 549 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 055 791,9 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 281,6 ming so‘mni, **qurilishda** – 2 199 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 102 598,4 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 888,1 ming so‘mni, **savdoda** -1 161 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 39 520,1 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 836,6 ming so‘mni, **tashish va saqlashda** – 3 905 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 349 056,2 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 448,9 ming so‘mni, **axborot va aloqada** - 874 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 81 130,5 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 735,6 ming so‘mni, **moliyaviy va sug‘urta faoliyatida** - 2 649 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 346 332,4 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 10 895,1 ming so‘mni, **ta’limda** -63 768 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 2 269 334,0 mln. so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 965,6 ming so‘mni, **sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 632 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 005221,4 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 268,1 ming so‘mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida 2023-yilning yanvar-dekabrida o‘rtacha oylik ish haqi

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so‘m*

2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashish va saqlash sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7448,9 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, xuddi shu davr 2019- yilda 2847,7 ming so‘mni, 2020- yilda 4217,7 ming so‘mni, 2021- yilda 4754,8 ming so‘mni, 2022- yilda 6480,5 ming so‘mni tashkil qilgan va otgan yillarga nisbatan 2,6 martaga ko‘paygani kuzatildi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)

(2023-yil yanvar-dekabrda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,ming so'm)

Shahar va tumanlar nomi	*O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm*	*Viloyatga nisbatan foizda*
Xorazm viloyati	**2 965,6**	**100,0**
shaharlar:		
Urganch. sh	4340,3	145,4
Xiva. sh	2827,4	95,3
tumanlar:		
Bog'ot	2798,7	94,4
Gurlan	2534,7	85,5
Qo'shko'pir	2476,5	83,5
Urganch	2716,1	91,6
Hazorasp	2556,4	86,2
Tuproqqal'a	2539,6	85,6
Xonqa	2875,6	97,0
Xiva	2597,8	87,6
Shovot	2687,3	90,6
Yangiariq	3216,0	108,4
Yangibozor	2450,3	82,6

Ta'lim sohasida jami 63 768 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 45,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 965,6 ming so'mni tashkil etgan va 2022- yilning mos davriga nisbatan 17,3 % ga o'sdi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*

(2023-yil yanvar-dekabrda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat’iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to‘lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab, narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va boshqalar kiradi.